O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABDULLAYEVA LOLA TOHIROVNA

INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASIGA “MUVAFFAQIYAT / SUCCESS” KONSEPTINI INTEGRATSIYA QILISHNING TEXNOLOGIK MODELI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 37.091.3:811.111+81-11

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on pedagogical sciences

Abdullayeva Lola Tohirovna
Ingliz tilini o‘qitish metodikasiga “muvaffaqiyat / success” konseptini integratsiya qilishning texnologik modeli 3

Абдуллаева Лола Тохировна
Технологическая модель интеграции концепта «успех / success» в методику обучения английскому языку 31

Abdullayeva Lola Tohirovna
Technological model for integrating the concept of “success” into the methodology of teaching English 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 66

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABDULLAYEVA LOLA TOHIROVNA

INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASIGA “MUVAFFAQIYAT / SUCCESS” KONSEPTINI INTEGRATSIYA QILISHNING TEXNOLOGIK MODELI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/Ped1396-raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xoshimova Dildorxon Urinboyevna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Maksudova Hilola Ferdinantovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Xolmurodova Dilnoza Xolmurodovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O’zbekiston davlat jahon tillar universiteti huzuridagi DSc.03/2020.31.01.Ped.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo’lib o’tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo’li ko’chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. Email: uzswiu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O’zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro’yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik Halqa yo’li ko’chasi, 21-A uy. Tel : (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “__” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____dagi _____- raqamli reyestr bayonnomasi).

D.U. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

F.G. Zakirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.B. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Globallashuv va xalqaro kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida chet tillarini, ayniqsa, akademik, kasbiy va madaniyatlararo muloqotning universal vositasi bo‘lgan ingliz tilini sifatli o‘qitish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta’lim rivojlanishining zamonaviy bosqichi bilim berish paradigmasidan kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va natijador ta’lim modellariga o‘tish bilan xarakterlanadi. Bunda nafaqat til ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi, balki talabalarning o‘zini o‘zi namoyon qilishi, barqaror o‘quv motivatsiyasi, refleksiyasi va ta’limdagi muvaffaqiyatga erishish qobiliyati asosiy ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahon pedagogika amaliyotida chet tillarini o‘qitish jarayoniga qadriyatli, kognitiv va metakognitiv komponentlarni integratsiya qilishga yo‘naltirilgan konseptual-yo‘naltirilgan ta’lim modellariga qiziqish kuchaymoqda. Talaba shaxsining yaxlit rivojlanishini, uning ichki motivatsiyasi, strategik fikrlashi va o‘z o‘quv faoliyatini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini shakllantirishni ta’minlovchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadqiqotlar alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu kontekstda «muvaffaqiyat/success» konsepti talabalarning kognitiv yutuqlari, shaxsiy o‘sishi, qadriyatli qarashlari va kommunikativ samaradorligi majmuasini aks ettiruvchi fanlararo pedagogik kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqot chet tillarini mukammal egallagan, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali joriy etishga tayyor, raqobatbardosh, tashabbuskor va kasbiy jihatdan mobil pedagog kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizning strategik va dasturiy hujjatlarida chet tili ta’limini rivojlantirish, o‘qitish va tarbiya metodikalarini takomillashtirish, shuningdek, yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, barqaror o‘quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvchanlikka ega bo‘lgan yangi avlod mutaxassislarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur talablar bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy va ijtimoiy jihatdan o‘zini o‘zi namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, o‘quv jarayonining mazmuni, shakllari va metodlarini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. “...biz o‘z oldimizga rivojlangan davlatlar qatoriga kirishdek yuksak maqsadni qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiyaga tayanib erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, islohotlar tashabbuskori bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikrlaydigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu sababli biz ta’limning barcha bo‘g‘inlarini — maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha isloh qilishni boshladik”[1].

[1]Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. – https://president.uz/ru/lists/view/3324

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlarida belgilangan vazifalar mazkur tadqiqotning normativ-huquqiy asosini tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va ta’lim texnologiyalarini joriy etish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, yuqori malakali pedagog hamda ilmiy kadrlarni tayyorlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, ular tadqiqotning maqsad va vazifalari bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Jahon pedagogika va lingvodidaktika fanida chet tillarini o‘qitish sifatini oshirish, kompetensiyaviy-yo‘naltirilgan va shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim modellarini joriy etish, shuningdek, talabalarning akademik muvaffaqiyati, o‘quv motivatsiyasi va metakognitiv mustaqilligini shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalash muammolariga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, Toronto universiteti (Kanada), Hankuk chet tillar universiteti, Seul milliy universiteti, Seul chet tillar universiteti (Janubiy Koreya), Chet tillar kolleji (KXR), Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Gallodet universiteti, Kent davlat universiteti, Monterrey xalqaro tadqiqotlar instituti, Texas universiteti, Florida xalqaro universiteti, Garvard universiteti, Yel universiteti, Stenford universiteti, Rutgers universiteti, Chikago universiteti (AQSH), Vestminster universiteti, Kembridj universiteti, Oksford universiteti, Edinburg universiteti, London Metropolitan universiteti (Buyuk Britaniya), Bolonya universiteti chet tillar maktabi (Italiya), Yangi Janubiy Uels universiteti, Kanberra universiteti (Avstraliya), Innsbruck universiteti (Avstriya), Yeditepe universiteti, Oltinbosh universiteti (Turkiya), shuningdek, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutida olib borilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda chet tillarini konseptual va kompetensiyaviy o‘qitish sohasida muhim ilmiy natijalarga erishilgan, xususan: chet tili ta’limida qadriyatli-mazmunli va motivatsion omillarning roli asoslangan; talabalarning o‘quv muvaffaqiyati va akademik o‘z-o‘zini samaradorligini (self-efficacy) shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan; chet tilini o‘qitish jarayoniga metakognitiv strategiyalar, refleksiv amaliyotlar va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni integratsiya qilish modellari ishlab chiqilgan; ta’limning ongliligi va talabalar avtonomiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlarini konseptual-yo‘naltirilgan tarzda loyihalashning samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

Jahon ilmiy amaliyotida chet tillarini o‘qitish metodikasi sohasidagi tadqiqotlar konseptual-yo‘naltirilgan va natijador yondashuvlar asosida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilmoqda: ta’lim muvaffaqiyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan chet tili ta’limining texnologik modellarini ishlab chiqish; konseptlar va qadriyatli kategoriyalarni o‘qitish maqsadi va mazmuniga integratsiya qilish; muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari va ta’lim muhitini loyihalash; ingliz tilini o‘qitishga metakognitiv va refleksiv texnologiyalarni joriy etish; o‘quv

[2] QS World University Rankings by Subject 2024: Linguistics [Electronic resource]. – URL: https://www.topuniversities.com/university-rankings/university-subject-rankings/2024/linguistics (date of access: 20.05.2024). QS World University Rankings by Subject 2024: Modern Languages [Electronic resource]. – URL: https://www.topuniversities.com/university-rankings/university-subject-rankings/2024/modern-languages (date of access: 20.05.2024). The Routledge Handbook of English Language Teaching / ed. by G. Hall. – London : Routledge, 2016. – 560 p. – (Routledge Handbooks in Applied Linguistics). Times Higher Education World University Rankings 2024: Arts and Humanities [Electronic resource]. – URL: https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2024/subject-ranking/arts-and-humanities (date of access: 20.05.2024).

muvaffaqiyati va ta’lim natijalarini baholash mezonlari hamda vositalarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda ko‘rsatilgan muammo milliy oliy ta’limni modernizatsiyalash va filologik yo‘nalishdagi talabalarning o‘quv muvaffaqiyatini oshirish vazifalari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq qilinmoqda. Mahalliy olimlar – I. M. Tuxtasinov, M. A. Irisqulov, J. J. Jalolov, T. K. Sattorov, M. Jusupov, G. T. Maxkamova, L. T. Axmedova, D. U. Hoshimova, U. U. Jumanazarov, F. P. Davronova[3], shuningdek, Sh. S. Safarov, F. M. Rashidova, G. I. Ergasheva va D. K. Kulmamatovlarning[4] kognitiv tilshunoslik, chet tillarni o‘qitish metodikasi, kasbiy tayyorgarlik hamda konseptlarni tadqiq etish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarni milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirishga yo‘naltirilgan. Ular ta’lim kontseptlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalashning mohiyati va mazmunini batafsil yoritib berdilar, xorijiy tillarni o‘qitish sifatini boshqarishning metodik asoslarini ishlab chiqdilar hamda o‘quv yutuqlarini monitoring qilish tizimlarini yaratdilar. Bu esa, ko‘p madaniyatli jamiyat sharoitida bitiruvchilarning kasbiy va kommunikativ tayyorgarligini barqaror rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy poydevor shakllantiradi.

MDH mamlakatlari, xususan, Rossiya ilmiy fazosida konseptual ta’lim va pedagogik diagnostika muammolari P.Ya. Galperin, I.A. Zimnyaya, S.G.Ter-Minasova, V.V. Safonova, Ye.I. Passov, A.A. Leontev va A.N. Shchukin[5] kabi

---

[3] Тухтасинов И. М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик асосида шакллантириш: Пед. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2017. – 254 б. Ирискулов М. Т. Тилшуносликка кириш: Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 256 б. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 432 б. Саттаров Т. К. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг педагогик техникасини шакллантириш технологияси: Пед. фан. докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000. – 38 б. Джусупов М. Когнитивно-дидактические аспекты обучения иностранным языкам: Монография. – Ташкент: Tafakkur, 2012. – 186 с. Махкамова Г. Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2010. – 42 с. Ахмедова Л. Т., Кон О. В. Методика преподавания английского языка. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. – 280 б. Хошимова Д. У. Олий таълим муассасаларида филологик йўналишдаги талабаларнинг мустақил таълим олиш фаолиятини бошқариш методикаси (инглиз тили мисолида): Пед. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2011. – 24 б. Жуманазаров У. У. Инглиз тили ўқитишда маданиятлараро мулоқотни шакллантириш муаммолари // НамДУ илмий хабарномаси. – Наманган, 2020. – № 6. – Б. 284–289. Davronova F.P. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o‘qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023. – 50 b.

[4] Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б. Рашидова Ф. М. Ўзбекистон узлуксиз таълим тизимида CEFRни татбиқ этишнинг концептуал-методик асосларини такомиллаштириш (инглиз тили мисолида): пед. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2017. Эргашева Г. И. Бўлажак чет тили ўқитувчиларининг инновацион касбий фаолиятига тайёргарлигини баҳолаш мезонлари // Замонавий таълим. – Тошкент, 2018. – № 5. – Б. 34-40. Махкамова Г. Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: Дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2010. – 320 с. Кульмаматов Д. К. Тилда концепт ва категория тушунчаларининг талқини // Chet tillari o‘zbekistonda. – Тошкент, 2017. – № 2 (16). – Б. 24-31.

[5] Гальперин П. Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий. – М.: МГУ, 1966. – 216 с. (или современное издание: М.: КДУ, 2002. – 400 с.). Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42. Леонтьев А. А. Психолого-педагогические основы обучения иностранным языкам: Методическое пособие / Под ред. Д. А. Леонтьева. – М.: Смысл, 2016. – 528 с. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с. Сафонова В. В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам: Монография. – М.: Высш. шк., 1991. – 311 с. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово/Slovo, 2000. – 624 с. Щукин А. Н.

olimlarning tadqiqotlarida fundamental rivojlanishga erishdi. Ushbu tadqiqotchilar aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini ochib berdilar, tilni o‘zlashtirishning faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan tabiatini ilmiy asosladilar, shuningdek, xorijiy til kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini diagnostika qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqdilar. Ularning konseptual ishlanmalari klassik milliy metodika maktabi bilan postsovet makonidagi oliy o‘quv yurtlarida filologik ta’lim sifatiga qo‘yilgan zamonaviy talablar o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘tadi hamda konseptual yondashuvlarni oliy ta’limning o‘quv-tarbiyaviy jarayoniga integratsiyalash uchun nazariy poydevor yaratdi.

Xalqaro ilmiy amaliyotda kontseptga yo‘naltirilgan ta’lim va pedagogik diagnostika masalalari J. Lantolf, X.L. Erikson, L. Lanning va M. Poner[6] kabi tadqiqotchilar tomonidan faol ishlab chiqilmoqda. Ularning ilmiy asarlari o‘quv jarayonini reproduktiv bilimlar paradigmasidan konseptual modellashtirishga o‘tishning nazariy-metodologik asoslarini yaratdi; bunda asosiy yo‘naltiruvchi omil sifatida tizimli fikrlash va fanning asosiy g‘oyalarini chuqur anglashni shakllantirish belgilandi. Xorijiy olimlar faktik bilimlarni qayd etishga emas, balki o‘quv materialini konseptual o‘zlashtirish darajasini baholashga qaratilgan diagnostika vositalarining samaradorligini ilmiy asosladilar. Bu esa shakllantiruvchi baholash amaliyotini joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuvni ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish imkonini berdi.

Psixologik-pedagogik, lingvodidaktik va metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon va milliy fanda xorijiy tillarni o‘qitish sohasida keng ko‘lamli nazariy va amaliy tajriba to‘plangan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy asarlarida ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, kommunikativ va kognitiv yondashuvlar masalalari har tomonlama yoritilgan; talabalarning o‘quv motivatsiyasi, akademik avtonomiyasi, metakognitiv strategiyalarni shakllantirish, shuningdek, oliy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalash muammolari chuqur o‘rganilgan.

Bir qator tadqiqotlarda kontseptga yo‘naltirilgan ta’lim, aksiologik yondashuv va ma’no-markazli ta’lim modellarining nazariy asoslari puxta ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda qadriyatli kontseptlarning ta’lim oluvchi shaxsini shakllantirish hamda uning o‘quv muvaffaqiyatiga ta’siri ochib berilgan. O‘quv jarayoni psixologiyasi, pedagogika va ta’lim nazariyasi kontekstida “muvaffaqiyat”, “muvaffaqiyatlilik”, “akademik muvaffaqiyat”, “self-efficacy” (o‘z

---

Обучение иностранным языкам: Теория и практика: Учебное пособие для преподавателей и студентов. – М.: Филоматис, 2004. – 416 с.

[6] Erickson H. L. Concept-Based Curriculum and Instruction: Teaching Beyond the Facts. – Corwin Press, 2002. – 174 p. Erickson H. L., Lanning L. A., French R. Concept-Based Curriculum and Instruction for the Thinking Classroom. 2nd ed. – Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2017. – 248 p. Lantolf J. P., Poehner M. E. Dynamic Assessment: A Vygotskian Approach to Understanding and Promoting L2 Development. – New York: Springer, 2008. – 205 p. Lantolf J. P., Poehner M. E. Sociocultural Theory and the Pedagogical Imperative in L2 Education: Vygotskian Praxis and the Research/Practice Divide. – London: Routledge, 2014. – 272 p. Poehner M. E. Dynamic Assessment of L2 Development: Bringing the Past into the Future // Journal of Applied Linguistics. – 2004. – № 1(1). – P. 49–72.

samaradorligiga ishonch) va “achievement motivation" (yutuqqa erishish motivatsiyasi) kabi fenomenlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida o‘quv mazmunini loyihalash, raqamli va interaktiv texnologiyalarni joriy etish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, shuningdek, talabalarda refleksiv va metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlar, odatda, muvaffaqiyatning alohida jihatlarini (motivatsiya, natijadorlik, akademik avtonomiya, o‘z-o‘zini baholash) fragmentar tarzda ko‘rib chiqadi hamda “muvaffaqiyat / success” kontseptini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiyalashning yaxlit metodik tizimini taklif qilmaydi.

O‘quv motivatsiyasini shakllantirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va natijaviy ta’lim modellariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar mavjud bo‘lsa-da, “muvaffaqiyat / success” kontseptini oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasiga integratsiyalashning texnologik modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalasi – ushbu kontseptni ta’lim maqsadlari, mazmuni, pedagogik texnologiyalar va natijalarni baholash tizimiga kompleks ravishda kiritishni ta’minlovchi model – hozirga qadar mustaqil doktorlik tadqiqoti ob’ekti sifatida o‘rganilmagan.

Ushbu olimlarning ilmiy hissasini umumlashtirib aytish mumkinki, ular tilni kognitiv tizim sifatida idrok etish uchun fundamental poydevor yaratganlar hamda faktik ma’lumotlarni bo‘laklab o‘zlashtirishdan til hodisalarini konseptual darajada anglashga o‘tish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Shu bilan birga, ularning ilmiy ishlarining yuqori ahamiyatiga qaramay, “muvaffaqiyat / success” kontseptini 3-kurs lingvistika yo‘nalishi talabalarining kasbiy shakllanishi omili sifatida o‘quv jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan pedagogik modellarni tizimli loyihalash masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aynan shu holat ushbu tadqiqot mavzusini tanlashni belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tillar tipologiyasi va tillararo metodologiya asosida qiyosiy-adabiy, lingvistik va pedagogik tadqiqotlar” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o‘qitish metodikasiga “muvaffaqiyat / success” konseptini integratsiya qilishning texnologik modeli bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ingliz tilini o‘qitish metodikasida “muvaffaqiyat/success” konseptining ko‘p o‘lchovli pedagogik hodisa sifatidagi mazmun-mohiyatini aniqlash;

ingliz tilini o‘qitish tizimida “muvaffaqiyat/success” konseptining didaktik-metodik kategoriya sifatidagi maqomini nazariy va metodik jihatdan asoslash;

konseptga yo‘naltirilgan yondashuvni kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi doirasida ingliz tilini o‘qitishga nisbatan asoslab berish;

konseptga yo‘naltirilgan didaktik dizayn asosida oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish;

“muvaffaqiyat / success” konseptini ingliz tilini o‘qitish metodikasiga integratsiya qilishning texnologik modelini ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o‘tkazish va amaliyotga joriy etish (Integrated Success-oriented Pedagogical Model – ISPM).

Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasalarining filologiya yo‘nalishlari talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonidan iborat.

Tadqiqot predmetini filologiya yo‘nalishlari talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayoniga “muvaffaqiyat / success” konseptini integratsiya qilishning mazmuni, metodlari, shakllari va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish va belgilangan vazifalarni hal etish uchun olingan natijalarning reprezentativligi hamda ishonchliligini ta’minlovchi o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi usullar majmuasidan: nazariy (tahlil, sintez, adabiyotlarni tizimlashtirish, konseptual modellashtirish va pedagogik loyihalash); empirik (kuzatish, so‘rovnoma, intervyu, test o‘tkazish, ekspert baholashi, faoliyat mahsullari tahlili); tajriba-sinov (pedagogik tajribaning aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari); statistik (miqdoriy va sifat tahlili, matematik statistika usullari va ma’lumotlarning grafik vizuallashuvi) foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“muvaffaqiyat/success” konsepti kognitiv, aksiologik, xulq-atvor va refleksiv komponentlar birligida amal qiluvchi murakkab, ko‘p o‘lchovli pedagogik hodisa ekanligi, ushbu konseptni o‘quv jarayoniga metodik vosita sifatida maqsadli integratsiya qilish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni va kasbiy chet tilli muloqotga tayyorligini barqaror oshirishni ta’minlashi isbotlangan;

ingliz tilini o‘qitish metodikasida “muvaffaqiyat/success” konsepti talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish, boshqarish va refleksiv tartibga solishga yo‘naltirilgan didaktik-metodik kategoriya sifatida amal qilishi nazariy va metodik jihatdan asoslanib, uning motivatsion-rag‘batlantiruvchi, ma’no hosil qiluvchi, tartibga soluvchi va refleksiv-baholovchi funksiyalari aniqlashtirilgan;

kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi doirasida ingliz tilini o‘qitishga konseptual-yo‘naltirilgan yondashuv “muvaffaqiyat/success” konseptini ta’lim maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari va natijalariga integratsiya qilishning mustaqil metodologik asosi sifatida asoslanib, kompetensiya indikatorlari, diagnostika vositalari hamda performans-topshiriqlari asosida ta’lim natijalarini baholashning tizimliligini ta’minlashi dalillangan;

oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilinio‘qitishning metodik ta’minoti “muvaffaqiyat/success” konseptining kognitiv, aksiologik va refleksiv tuzilmasiga tayanadigan hamda konseptual, protsessual, metakognitiv va refleksiv bosqichlarni o‘z ichiga olgan konseptual-yo‘naltirilgan didaktik dizayn qadriyatli-yo‘naltirilgan muammoli vaziyatlar, kasbiy-kommunikativ ssenariylar va refleksiv amaliyotlar bilan takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitish metodikasiga “muvaffaqiyat/success” konseptini integratsiya qilishning maqsadli, mazmunli, protsessual-texnologik va baholash-natijaviy bloklarini, shuningdek, yakuniy natijani va uni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish algoritmini o‘z ichiga olgan texnologik modeli – Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) ishlab chiqilib, uning kompetensiyaviy yondashuv, konseptual-yo‘naltirilgan didaktik dizayn va mezoniy baholash tizimi asosida amalga oshirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi, o‘quv motivatsiyasi va refleksiv fikrlashini maqsadli hamda barqaror rivojlantirishni ta’minlashi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konseptual-yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy-metodologik qoidalari hamda Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) texnologik modeli asosida oliy ta’lim muassasalari filologiya yo‘nalishlarining 3-kurs talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayoniga “muvaffaqiyat/success” konseptini integratsiya qilishning metodik ta’minoti ishlab chiqilgan;

filologiya yo‘nalishlarining 3-kurs talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonida “muvaffaqiyat/success” konseptini maqsad, mazmun, o‘quv faoliyati va baholash jarayonlariga izchil integratsiya qilishni ta’minlovchi ISPM texnologik modelini amalga oshirish algoritmi ishlab chiqilgan hamda uning bosqichlari amaliyotga tatbiq etilgan;

ingliz tilini o‘qitish jarayonida “muvaffaqiyat/success” konseptining kognitiv, qadriyatli, faoliyatli va refleksiv komponentlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan konseptual-yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari, muammoli vaziyatlar, kasbiy-kommunikativ ssenariylar, loyiha va refleksiv mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

talabalarda “muvaffaqiyat/success” konseptining shakllanganlik darajasi hamda chet tili kommunikativ kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun kognitiv, motivatsion, faoliyatli va refleksiv mezonlar, ularning ko‘rsatkichlari va darajalari, shuningdek, o‘quv muvaffaqiyatini monitoring qilishga mo‘ljallangan diagnostik vositalar ishlab chiqilgan;

ISPM texnologik modeli asosida filologiya yo‘nalishlarining 3-kurs talabalari bilan tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, o‘tkazilgan, modelning samaradorligi empirik va statistik jihatdan tasdiqlangan hamda uni ingliz tilini o‘qitish amaliyotiga joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi boshlang‘ich nazariy qoidalarning metodologik jihatdan asoslanganligi; tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keladigan o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi nazariy, empirik va eksperimental metodlar majmuasidan foydalanilganligi; tanlanma majmuaning (filologiya yo‘nalishlarining 3-kurs talabalari) reprezentativligi; pedagogik eksperimentning bosqichma-bosqich tashkil etilganligi; eksperimental ma’lumotlarga ishlov berishda matematik statistika metodlarining qo‘llanilganligi; tadqiqot natijalarining oliy maktab ta’lim amaliyotiga joriy etilganligi hamda ularning samaradorligi tasdiqlanganligi bilan ta’minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz tilini o‘qitish metodikasida “muvaffaqiyat/success” konseptini

ko‘p o‘lchovli pedagogik kategoriya sifatida nazariy jihatdan asoslanganligi; ushbu konseptni chet tili ta’limiga integratsiya qilishning metodologik asosi sifatida konseptual-yo‘naltirilgan yondashuvning ishlab chiqilganligi; oliy filologik ta’lim tizimida o‘quv jarayonini konseptual modellashtirish imkoniyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytiruvchi ISPM texnologik modelining yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ISPM texnologik modeli, konseptual-yo‘naltirilgan topshiriqlar majmuasi, mezonlar va diagnostika vositalaridan filologiya yo‘nalishlarining 3-kurs talabalariga ingliz tilini o‘qitishda foydalanish imkoniyati bilan; o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik majmualar va ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha kurslarni takomillashtirishda; chet tili o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimida; bo‘lajak mutaxassislarning o‘quv muvaffaqiyati, metakognitiv ko‘nikmalari va kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o‘qitish metodikasiga “muvaffaqiyat / success” konseptini integratsiya qilishning texnologik modeli bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“muvaffaqiyat/success” konsepti kognitiv, aksiologik, xulq-atvor va refleksiv komponentlar birligida amal qiluvchi murakkab, ko‘p o‘lchovli pedagogik hodisa ekanligi, ushbu konseptni o‘quv jarayoniga metodik vosita sifatida maqsadli integratsiya qilish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni va kasbiy chet tilli muloqotga tayyorligini barqaror oshirishni ta’minlashi isbotlanganligi haqidagi ma’lumotlar “Cognitive linguistics” darsligi mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 1-maydagi 140-sonli buyrug‘iga asosan nashr etilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma). Natijada, ushbu darslik tarkibida mualliflik kommunikativ topshiriqlari va refleksiv mashqlar tizimining amalga oshirilishi orqali bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-kommunikativ kompetensiyani sifatli rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda chet tili muhitida samarali kasbiy muloqotga tayyorlikni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilgan;

ingliz tilini o‘qitish metodikasida “muvaffaqiyat/success” konsepti talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish, boshqarish va refleksiv tartibga solishga yo‘naltirilgan didaktik-metodik kategoriya sifatida amal qilishi nazariy va metodik jihatdan asoslanib, uning motivatsion-rag‘batlantiruvchi, ma’no hosil qiluvchi, tartibga soluvchi va refleksiv-baholovchi funksiyalari aniqlashtirilganligi haqidagi xulosalar “Lesson planning: selecting and creating educational materials I” darsligi mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 16-dekabrdagi 367-sonli buyrug‘iga muvofiq nashr etilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma). Natijada, darslik tuzilmasiga muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim mazmunini tanlashning metodik mezonlari, ta’lim natijalarini loyihalash usullari va kommunikativ-refleksiv topshiriqlar majmuasining integratsiya qilinishi talabalarning o‘quv faoliyatini samarali boshqarish, ularning

kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish hamda madaniyatlararo kasbiy muloqotga tayyorligini rivojlantirish uchun zarur metodik sharoitlarni yaratishga xizmat qilgan;

kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi doirasida ingliz tilini o‘qitishga konseptual-yo‘naltirilgan yondashuv “muvaffaqiyat/success” konseptini ta’lim maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari va natijalariga integratsiya qilishning mustaqil metodologik asosi sifatida asoslanib, kompetensiya indikatorlari, diagnostika vositalari hamda performans-topshiriqlari asosida ta’lim natijalarini baholashning tizimliligini ta’minlashi dalillanganligi haqidagi ma’lumotlar “Developing intercultural communication” o’quv qo’llanmasi mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 1-avgustdagi 224-sonli buyrug‘iga asosan nashr etilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma). Natijada, qo‘llanma tuzilmasiga mualliflik muammoli vaziyatlar tizimi, rolli o‘yinlar va kasbga yo‘naltirilgan topshiriqlarning integratsiya qilinishi madaniyatlararo sezgirlik, bag‘rikenglik va nutq strategiyalaridan ongli foydalanishni rivojlantirish uchun metodik sharoitlar yaratib, bo‘lajak mutaxassislarning turli madaniy kontekstlarda samarali kasbiy muloqotga tayyorlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilinio‘qitishning metodik ta’minoti “muvaffaqiyat/success” konseptining kognitiv, aksiologik va refleksiv tuzilmasiga tayanadigan hamda konseptual, protsessual, metakognitiv va refleksiv bosqichlarni o‘z ichiga olgan konseptual-yo‘naltirilgan didaktik dizayn qadriyatli-yo‘naltirilgan muammoli vaziyatlar, kasbiy-kommunikativ ssenariylar va refleksiv amaliyotlar bilan takomillashtirilganligiga oid xulosalardan Britaniya Kengashi (British Council) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan “English as a school subject” (1683580) xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 4-fevraldagi 11-25/63-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi, o‘quv motivatsiyasi va refleksiv fikrlashini izchil rivojlantirish ta’minlangan, bu esa ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

ingliz tilini o‘qitish metodikasiga “muvaffaqiyat/success” konseptini integratsiya qilishning maqsadli, mazmunli, protsessual-texnologik va baholash-natijaviy bloklarini, shuningdek, yakuniy natijani va uni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish algoritmini o‘z ichiga olgan texnologik modeli – Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) ishlab chiqilib, uning kompetensiyaviy yondashuv, konseptual-yo‘naltirilgan didaktik dizayn va mezoniy baholash tizimi asosida amalga oshirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi, o‘quv motivatsiyasi va refleksiv fikrlashini maqsadli hamda barqaror rivojlantirishni ta’minlashi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi orqali 2025-yilning noyabr va dekabr oylarida efirga uzatilgan “FL club” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlash jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 2-fevraldagi 05-09-181-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini o‘rganayotgan keng teleauditoriyaga

“muvaffaqiyat/success” konsepti integratsiyasiga asoslangan metodik ta’minotning samaradorligi haqida batafsil va amaliy yo‘naltirilgan ma’lumotlar taqdim etildi, bu esa chet tillarini o‘qitishning zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarini ommalashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 30 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan 2 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya, 1 ta SCOPUS ma’lumotlar bazasiga kiruvchi jurnalda (Q2) maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola va xorijiy jurnallarda 7 tasi chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishi hajmi 244 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi va unga bo‘lgan ehtiyoj asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi asoslangan, ishning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati shakllantirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi dalillangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va e’lon qilingan ishlar natijalari haqida ma’lumotlar berilgan hamda dissertatsiya tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **«Ingliz tilini o‘qitishda konseptual-yo‘naltirilgan yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida lingvodidaktikada konseptual-yo‘naltirilgan yondashuvning genezisi (kelib chiqishi) va zamonaviy holati yoritilgan. Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohasidagi Yu.S.Stepanov, Z.D.Popova, I.A.Sternin, V.V.Vorobyovlarning[7] fundamental asarlari, shuningdek, J.Lakoff va M.Jonsonning[8] konseptual metafora hamda Yu.N.Karaulovning[9] lisoniy shaxs konsepsiyalari tadqiqotning nazariy bazasini tashkil etdi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, oliy maktabda chet tili ta’limi paradigmasi sof lingvistik yondashuvdan shaxsiy-faoliyatli

[7] Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. — М. : АСТ: Восток-Запад, 2007. — 314 с. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. — М. : Академический проект, 2004. — 992 с. Воробьев, В. В. Лингвокультурология : Монография / В. В. Воробьев. — М. : Изд-во Рос. ун-та дружбы народов, 2008. — 336 с. Стернин, И. А. Методы описания концептов / И. А. Стернин // Антология концептов / под ред. В. И. Карасика, И. А. Стернина. — Волгоград : Парадигма, 2005. — С. 7–10.

[8] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago : University of Chicago Press, 2003. — 276 p.

[9] Караулов, Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. — Изд. 7-е. — М. : ЛКИ, 2010. — 264 с.

yondashuvga transformatsiyalashmoqda[10]. Bunday sharoitda nutq faoliyati nazariyasi va bilimlarning kognitiv reprezentatsiyasiga tayanib, qadriyatli-mazmunli komponentlarni o‘qitish jarayoniga tizimli ravishda kiritish imkonini beruvchi konseptual-yo‘naltirilgan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi[11].

Tadqiqot doirasida konsept tushunchaviy, obrazli va qadriyatli komponentlarni o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli mental tuzilma sifatida qaraladi[12]. V.I.Karasik va G.G.Slishkin tasniflariga tayangan holda, chet tillarini o‘qitishda “muvaffaqiyat/success” konsepti biz tomonimizdan quyidagi deskriptorlar orqali tarkiblashtirildi:

kognitiv komponent – maqsadlarga erishish haqidagi bilimlarning freymli tashkil etilishi;

aksiologik komponent – qadriyatli dominantlar va motivlar ierarxiyasi;

xulq-atvor komponenti – muvaffaqiyatni amalga oshirishning pragmatik strategiyalari;

refleksiv komponent – faoliyat natijalarining metakognitiv monitoringi[13].

“Muvaffaqiyat/success” konseptini integratsiya qilishning metodologik ahamiyati o‘z-o‘zini samaradorligi (self-efficacy) nazariyasi[14] va ko‘rinarli ta’lim (visible learning) konsepsiyasi[15]bilan asoslangan. Konseptdan metodik asos sifatida foydalanish nafaqat lingvistik birliklarni yetkazish, balki talaba-filologning konseptual olam manzarasini shakllantirish imkonini berishi aniqlangan. Bu quyidagilarga xizmat qiladi:

1. Shaxsiy ahamiyatga ega mazmunlarni aktuallashtirish orqali motivatsiyani oshirishga.

2. Refleksiv yondashuv asosida o‘quv faoliyatining ongliligini rivojlantirishga.

3. Shaxsning integrativ sifati sifatida kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga.

Tadqiqotda pedagogik diagnostika kognitiv tuzilmalar va konseptual freymlarni o‘zlashtirish dinamikasi monitoringi prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, “muvaffaqiyat / success” konsepti o‘qitishning invariant birligi va diagnostika vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda xalqaro standartlar (CEFR)

---

[10] Зимняя, И. А. Педагогическая психология : учебник для вузов / И. А. Зимняя. — 3-е изд., пересм. — М. : МПСИ; Воронеж : МОДЭК, 2010. — 448 с. Леонтьев, А. А. Психология общения : учеб. пособие для студентов вузов / А. А. Леонтьев. — 5-е изд., стер. — М. : Смысл ; Академия, 2008. — 368 с.

[11] Хомский, Н. Язык и мышление / Н. Хомский ; пер. с англ. Б. Ю. Городецкого. — М. : Изд-во Моск. ун-та, 1972. — 122 с. Дейк, Т. А. ван**.** Язык. Познание. Коммуникация / Т. А. ван Дейк ; пер. с англ. под ред. В. И. Герасимова. — М. : Прогресс, 1989. — 312 с.

[12] Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека / Н. Д. Арутюнова. — 2-е изд., испр. — М. : Языки русской культуры, 1999. — 896 с. Аскольдов, С. А. Концепт и слово / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология / под ред. В. П. Нерознака. — М. : Academia, 1997. — С. 267–279.

[13] Карасик, В. И., Слышкин, Г. Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования / В. И. Карасик, Г. Г. Слышкин // Методологические проблемы когнитивной лингвистики : сб. науч. тр. / под ред. И. А. Стернина. — Воронеж : Изд-во ВГУ, 2001. — С. 75–80.

[14] Zimmerman B. J. Self-Efficacy: An Essential Motive to Learn // Contemporary Educational Psychology. — 2000. — Vol. 25, No. 1. — P. 82-91.

[15] Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. — London ; New York: Routledge, 2008. — 392 p.

talablariga muvofiq talabalar kompetensiyalarining tizimli rivojlanishini ta’minlaydi.

“Muvaffaqiyat / success” konsepti jamiyatning qadriyatli yo‘nalishlarini, kasbiy standartlarni va talabalarning shaxsiy ehtiyojlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik xususiyatga ega. O‘quv jarayonida bu quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

o‘quv materiallari mazmunini talabaning qadriyatli yo‘nalishlariga moslashtirish;

loyihaviy va amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish;

talabalarda o‘quv vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ongli tushunishni shakllantirish (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Ingliz tilini o‘qitishga “muvaffaqiyat / success” konseptini integratsiya qilishning asosiy vazifalari

№	Vazifa	Vazifaning mazmuni
1.	O‘quv vazifasi	«Muvaffaqiyat» konsepti elementlarini kiritgan holda talabalarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda takomillashtirish.
2.	Diagnostik vazifa	Konseptni o‘zlashtirish darajasini aniqlash va o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritish.
3.	Korreksion vazifa	Maqsadli topshiriqlar orqali bilim va ko‘nikmalardagi bo‘shliqlarni bartaraf etish.
4.	Menejment vazifasi	Materialni samarali o‘zlashtirish uchun o‘quv jarayonini rejalashtirish va boshqarish.
5.	Baholash vazifasi	Mezoniy rubrikalar asosida talabalar muvaffaqiyatini baholash, motivatsiyani rivojlantirish.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodikalari va konseptlarni integratsiya qilish imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida chet tillarini o‘qitishning turli yondashuv va texnologiyalarini “muvaffaqiyat / success” konseptini integratsiya qilish salohiyati nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilingan. Globallashuv, raqamlashtirish va chet tili ta’limiga qo‘yilayotgan talablar ortib borayotgan zamonaviy sharoitda talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo, kognitiv va kasbiy tarkibiy qismlarini shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqsadlarga erishishning asosiy vositalaridan biri konseptlardan o‘rganilayotgan tilning tayanch qadriyatlari, mazmuniy dominantalari va ijtimoiy qarashlarini aks ettiruvchi kognitiv hamda madaniy birliklar sifatida foydalanishdir. Konseptlar nafaqat leksik birliklar, balki olamni konseptuallashtirish vositasi hamdir, bu esa til egalari jamiyatining madaniyati va qadriyatli yo‘nalishlari haqida yaxlit tasavvur yaratish imkonini beradi. Shunday qilib, ingliz tilini o‘qitish jarayoniga konseptlarni integratsiya qilish zamonaviy metodikaning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib, talabalarning kommunikativ, tanqidiy va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Ingliz tilini o‘qitishning an’anaviy metodikalari tahlili doirasida grammatik-tarjima metodi, matnli-tarjima yondashuvi va audiolingval metod elementlari ko‘rib chiqiladi. Tarixan ushbu metodikalar lingvodidaktikaning shakllanishida

muhim rol o‘ynagan hamda grammatik qoidalar va leksik materialning tizimli o‘zlashtirilishini ta’minlagan. Grammatik-tarjima metodi grammatik konstruksiyalarni o‘rganishga hamda matnlarni chet tilidan ona tiliga va aksincha tarjima qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu tahliliy fikrlashni rivojlantirishga va til tizimini ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Biroq, ushbu metod konseptlarni integratsiya qilish nuqtai nazaridan sezilarli cheklovlarga ega, chunki ularda konseptlar madaniy va qadriyatli o‘lchovlardan xoli bo‘lgan faqatgina lug‘at birliklari sifatida qaraladi. XX asr o‘rtalarida keng tarqalgan audiolingval metod til modellarini ko‘p marotaba takrorlash hamda talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish orqali malakalarni avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan. Formal til ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali bo‘lishiga qaramay, ushbu metod ma’nolar va madaniy farqlarni ongli tahlil qilishni nazarda tutmaydi, bu esa konseptlar bilan ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Shunday qilib, an’anaviy metodikalar tilning formal jihati ustunligi, madaniyat va qadriyatlarga minimal darajada yo‘naltirilganligi hamda konseptlar bilan kognitiv tuzilmalar sifatida maqsadli ish olib borilmasligi bilan tavsiflanadi.

XX asr oxiridan boshlab chet tillarini o‘qitish metodikasida tildan real muloqot vositasi sifatida foydalanishga yo‘naltirilgan kommunikativ yondashuv yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi til, sotsiomadaniy va strategik tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Kommunikativ ta’lim real muloqot vaziyatlarini modellashtirish, autentik matnlardan foydalanish, rolli o‘yinlar, munozaralar, muammoli vazifalar va loyihaviy mashqlar orqali amalga oshiriladi. Bunday sharoitda konseptlar o‘quv modullarining mavzuviy va mazmuniy markazi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, kasbiy o‘z-o‘zini namoyon qilish, karyera va ta’lim masalalarini muhokama qilish muqarrar ravishda «muvaffaqiyat/success» konseptiga hamda uning madaniy interpretatsiyalariga, jumladan, ingliz tili va ona tili madaniy kontekstlarida muvaffaqiyatni idrok etishdagi farqlarga to‘xtaladi. Shu bilan birga, kommunikativ metodikalarda konseptlarni o‘zlashtirish asosan implitsit (yashirin) xarakterga ega: talabalar ularni kognitiv tuzilmasi va qadriyatli yukini tizimli tahlil qilmasdan, kontekst va muloqot amaliyoti orqali talqin qiladilar. Bu madaniy jihatdan muhim tushunchalarning parchalanib (fragmentar) tushunilishiga olib kelishi va chuqur madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanishini cheklashi mumkin.

Zamonaviy konseptual va loyihaviy yondashuvlar ushbu cheklovlarni bartaraf etish hamda konseptlarni ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilishni ta’minlash imkonini beradi. Konseptual yondashuv kognitiv tilshunoslik qoidalariga tayanadi va tilni o‘rganilayotgan til madaniyatining tayanch qadriyatlari hamda mazmuniy dominantalarini aks ettiruvchi kalit konseptlar orqali o‘qitishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida konseptlarning tadbiq qilinishidagi lisoniy vositalar tahlil qilinadi, ular ona tili madaniyatidagi konseptlar bilan qiyoslanadi hamda metatili va metakognitiv anglash shakllantiriladi. Konseptlar bilan ongli ravishda ishlash tanqidiy fikrlash va interpretatsiya (talqin qilish) ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, madaniy farqlarni chuqurroq tushunish va to‘laqonli madaniyatlararo muloqot malakalarini shakllantirish

imkonini beradi. Konseptual yondashuv, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima orqali berish qiyin bo‘lgan va madaniy hamda kognitiv xususiyatlarini tizimli tahlil qilishni talab etadigan *success, responsibility, freedom* kabi mavhum va qadriyatli konseptlarni o‘rganishda juda samaralidir.

Loyihaviy yondashuv (Project-Based Learning) o‘rganilayotgan materialni real yoki modellashtirilgan vaziyatlarda qo‘llash uchun sharoit yaratib, talabalarning amaliy faoliyatini faollashtiradi. Loyihalarni bajarish lisoniy, kognitiv va madaniy bilimlarning integratsiyalashuviga, avtonomiya (mustaqillik), hamkorlik va refleksiya ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Loyihalar bitta konsept atrofida tashkil etilishi mumkin, bu esa talabalarga uning lisoniy va madaniy jihatlarini mustaqil tadqiq etish, shaxsiy tushunchasini shakllantirish va uni amaliy topshiriqlarda qo‘llash imkonini beradi. Bunga “Muvaffaqiyatga bo‘lgan yo‘lim” (*My Path to Success*) loyihasi misol bo‘la oladi: uning doirasida talabalar “muvaffaqiyat/success” konseptini matnlar, intervyular, media-manbalar va shaxsiy tajriba orqali tahlil qiladilar, shu bilan birga leksik-grammatik vositalarni o‘zlashtiradilar, madaniy farqlarni qiyoslaydilar va muvaffaqiyat tushunchasiga nisbatan tanqidiy idrokni shakllantiradilar.

Eng yuqori ta’limiy samaraga konseptual va loyihaviy yondashuvlar sintez qilinganda, ya’ni o‘qitishning kognitiv va madaniy chuqurligi amaliy yo‘naltirilgan faoliyat bilan uyg‘unlashganda erishiladi. Bunday sintez “muvaffaqiyat / success” konseptini maksimal darajada samarali integratsiya qilish imkonini beradi: talabalar uning madaniy va qadriyatli xususiyatlarini anglaydilar, konseptni turli kommunikativ va loyihaviy topshiriqlarda qo‘llaydilar, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradilar.

Metodikalarning madaniy kontekstga yo‘naltirilganlik, kognitiv faoliyatni faollashtirish, konseptni amaliy qo‘llash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari bo‘yicha qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy va audiolingval metodlar konseptlarni integratsiya qilishda minimal imkoniyatlarga ega, kommunikativ yondashuvlar esa faqat qisman jalb qilishni ta’minlaydi; konseptual va loyihaviy yondashuvlar ongli o‘zlashtirish va amaliy qo‘llashni ta’minlasa, ularning sintezi maksimal samaradorlikni namoyon etadi.


Dissertatsiyaning **“Muvaffaqiyat/success» konseptini integratsiya qilishning texnologik modelini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarda ta’lim faoliyatida barqaror muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan (*success-oriented*) qarashlar, strategiyalar va xulq-atvor shakllarini shakllantirishga qaratilgan mualliflik pedagogik tizimi – Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) taqdim etilgan. Zamonaviy ta’lim paradigmasi talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, qadriyatli-mazmunli konseptlarni shakllantirishning nazariy jihatdan asoslangan va texnologik jihatdan tizimlashtirilgan modellarini ishlab chiqishni talab etadi; ular orasida “muvaffaqiyat / success” konsepti yuqori pedagogik, sotsiomadaniy va aksiologik salohiyatga ega. ISPM modelini ishlab chiqish tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlar sinteziga asoslangan bo‘lib, bu modelning yaxlitligi, qayta tiklanuvchanligi va metodologik asoslanganligini ta’minlaydi.

ISPM modelini qurish uning tuzilishi va ishlashini belgilovchi oltita asosiy tamoyilga tayanadi:

Tizimli integratsiya tamoyili (System Integration Principle) – “muvaffaqiyat/success” konseptini ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga kiritish, bu uning tizimli va majmuaviy o‘zlashtirilishini ta’minlaydi;

Shaxsiy ma’no tamoyili (Personal Meaning Principle) – muvaffaqiyatni talabaning shaxsiy qadriyatlari, qarashlari va motivatsiyasini hisobga olgan holda individual ahamiyatga ega natija sifatida talqin qilish;

Faoliyatga asoslanganlik tamoyili (Activity-Based Principle) – o‘quv va kvazi-kasbiy faoliyat orqali muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan (*success-oriented*) tajribani shakllantirish, bu bilimlarning amaliy mustahkamlanishiga xizmat qiladi;



1-rasm. Talabalarning chet tiliga tayyorgarligiga «muvaffaqiyat / success» konseptini integratsiya qilishning texnologik modeli (ISPM)

Refleksivlik tamoyili (Reflective Principle) – shaxsiy yutuq va xatolarni metakognitiv tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, bu tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi;

Uzluksizlik tamoyili (Continuity Principle) – muvaffaqiyat kompetensiyalarini oddiy ko‘nikmalardan murakkab xulq-atvor modellarigacha bosqichma-bosqich rivojlantirib borish;

Natijaga yo‘naltirilganlik tamoyili (Outcome Orientation Principle) – tashxislanadigan va qayta tiklanadigan natijalarga yo‘naltirilganlik, bu model samaradorligini xolis baholashni ta’minlaydi.

ISPM (Integrated Success-oriented Pedagogical Model) tuzilmasi o‘zaro bog‘liq to‘rtta funksional blok va yakuniy natijani o‘z ichiga oladi, ularning har biri muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan ta’lim oluvchi shaxsini shakllantirishda o‘ziga xos funksiyani bajaradi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) modelining funksional bloklari

Modelning funksional bloki	**Mazmuni va funksiyalari**
Target Block — Maqsadli blok	*Success-oriented (muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan) shaxsni shakllantirishning strategik maqsadini belgilaydi hamda maqsad qo‘yish, o‘z-o‘zini tartibga solish va natija uchun mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar tizimini o‘z ichiga oladi. Shaxsiy yutuqlarga hamda ijtimoiy ahamiyatga ega muvaffaqiyatga yo‘nalganlikni ta’minlaydi.*
Content Block — Mazmunli blok	«Muvaffaqiyat / success» konseptini ko‘p o‘lchovli tuzilma sifatida ifodalaydi. Uning mazmuni kognitiv o‘lchov (bilimlar, strategiyalar, muvaffaqiyat mezonlari), aksiologik o‘lchov (qadriyatlar, qarashlar, mazmuniy mo‘ljallar), xulq-atvor o‘lchovi (natijaga erishish modellari, harakatlar va strategiyalar) hamda refleksiv o‘lchovni (o‘z faoliyati va natijalarini anglash, tahlil qilish va baholash) qamrab oladi.
Process-Technological Block — Jarayon-texnologik blok	Modelning amaliy tatbiqini ta’minlovchi pedagogik texnologiyalar va metodik vositalar majmuasini o‘z ichiga oladi: interaktiv topshiriqlar, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, rolli o‘yinlar, munozaralar, refleksiv topshiriqlar va *scaffolding* texnologiyalari.
Evaluation-Result Block — Natijalarni baholash bloki	Talabalarning shaxsiy va ta’limiy rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, erishilgan yutuqlar va mavjud qiyinchiliklarni tahlil qilish, metakognitiv anglash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiyani rivojlantirishni ta’minlaydi. Shuningdek, belgilangan mezonlar asosida modelni amalga oshirish natijalarini baholash imkonini beradi.

Modelning yakuniy natijasi yuqori darajadagi kasbiy-kommunikativ kompetensiya va xorijiy ijtimoiylashuv bilan ifodalanadi.

ISPM modelini amalga oshirish “muvaffaqiyat / success” konseptini deklarativ (shunchaki bayon qilingan) o‘zlashtirishdan uni shaxsiy o‘zlashtirishga (o‘ziniki qilishga) o‘tishni ta’minlaydigan mualliflik metodik usullari majmuasidan foydalanishni nazarda tutadi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Mualliflik metodik usullari

Metodik usul	Mazmuni va amaliy tatbiqi
Success-Oriented Task Design Muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan topshiriqlarni loyihalash	Muvaffaqiyat mezonlari aniq bayon etilgan o‘quv topshiriqlarini loyihalash; bu maqsad qo‘yish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.
Project-Based Learning Loyihaga asoslangan o‘qitish	Ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega natijaga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish, jumladan, individual va guruhli loyihalar, tadqiqot topshiriqlari.
Case-Based Analysis of Success Muvaffaqiyatni keys-tahlil qilish	Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik tiplarini tahlil qilish, natijaga erishish omillarini aniqlash, real va modellashtirilgan vaziyatlarni muhokama qilish.
Success Portfolio Muvaffaqiyat portfoliosi	Shaxsiy yutuqlar traektoriyasini yuritish, oraliq va yakuniy natijalarni qayd etish, konseptni o‘zlashtirishdagi progressni (o‘sishni) baholash.
Reflective Journal Refleksiv kundalik	Metakognitiv refleksiya va shaxsiy tajribani ongli tahlil qilishni rivojlantirish, muvaffaqiyatning hissiy, xulq-atvor va kognitiv jihatlarini qayd etib borish.

Ushbu usullarni qo‘llash talabalarga muvaffaqiyatni tashqi baho sifatida emas, balki ongli faoliyat natijasi sifatida ko‘rish imkonini beradi, bu esa mustaqillik, tanqidiy fikrlash va strategik rejalashtirish qobiliyatini rag‘batlantiradi. ISPM modelini joriy etish jarayonning tizimliligi, qayta tiklanuvchanligi va boshqariluvchanligini ta’minlovchi texnologik algoritm orqali amalga oshiriladi (4-jadvalga qarang):

4-jadval.

Texnologik algoritm

Algoritm bosqichi	Mazmuni va funksiyalari
Tashxis bosqichi Diagnostic Stage	*Success*-tasavvurlar shakllanganligining boshlang‘ich darajasini aniqlash, talabalarning bilimi, motivatsiyasi, qadriyatli qarashlari va xulq-atvor strategiyalarini baholash.
Loyiha bosqichi Design Stage	ISPM maqsadlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini loyihalash, mazmun, metod va texnologiyalarni tanlash, *success-oriented* (muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan) faoliyat turlarini integratsiya qilish.
Amalga oshirish bosqichi Implementation Stage	Modelni o‘quv topshiriqlari, loyihalar, keyslar va amaliy ko‘nikmalar hamda qadriyatli yo‘nalishlarni shakllantirishni qo‘llab-quvvatlovchi interaktiv faoliyat orqali tizimli tatbiq etish.
Refleksiyava tuzatish bosqichi Reflection and Adjustment Stage	Oraliq tahlil, qayta aloqa va progress (o‘sish) monitoringi asosida mazmun, metod va texnologiyalarga tuzatishlar kiritish.
Yakuniy baholash bosqichi Final Evaluation Stage	Modelni joriy etish natijalarini kognitiv, motivatsion, xulq-atvor va refleksiv mezonlar bo‘yicha majmuaviy baholash, shaxs tuzilmasi va *success*-kompetensiyalardagi o‘zgarishlarni qayd etish.

ISPM modelini joriy etish samaradorligi pedagogik tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlanadi: unda barqaror *success-oriented* qarashlarning shakllanganligi,

motivatsiyaning ortishi, metakognitiv va refleksiv ko‘nikmalarning rivojlanishi hamda o‘quv va loyihaviy faoliyatda bilim va strategiyalarning faol qo‘llanilishi kuzatiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan Integrated Success-oriented Pedagogical Model ta’lim jarayoniga “muvaffaqiyat / success” konseptining kognitiv, qadriyatli va xulq-atvor komponentlari integratsiyasini ta’minlovchi yaxlit pedagogik tizimdir. Tamoyillar, tuzilma, metodik usullar va joriy etish algoritmi sintezi o‘quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatni ongli ravishda rejalashtirish, unga erishish va tahlil qilishga qodir bo‘lgan kompetentli, refleksiv va maqsadga intiluvchan ta’lim oluvchi shaxsini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Dissertatsiyaning **«Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) modelini eksperimental tekshirish va aprobatsiyadan o‘tkazish»** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tadqiqot tanlanmasining umumiy tavsifi va boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish, eksperimental o‘qitishni amalga oshirish algoritmi: bosqichlari va natijalarni verifikatsiya qilish (tekshirish) usullari hamda natijalarni tahlil qilish yoritilgan. Tajriba-sinov ishlaridan ko‘zlangan maqsad ISPM modelining talabalarning kognitiv, motivatsion-shaxsiy, xulq-atvor va refleksiv ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash, shuningdek, mahalliy madaniy kontekst va “muvaffaqiyat / success” konseptini idrok etish xususiyatlarini hisobga olgan holda ingliz tilinio‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarida jami 628 nafar talaba (SamDChTI – 132 nafar, O‘zDJTU – 128 nafar, JDPU – 126 nafar, NamDChTI – 124 nafar va GulDU – 118 nafar) ishtirok etdi, ularning ingliz tilini bilish darajasi B2+ (Upper-Intermediate) darajasiga mos edi (5-jadvalga qarang).

5-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarining tarkibi (n=628)

OTM nomi	Tajriba guruhi (TG)	Nazorat guruhi (NG)	Jami
Samarqand davlat chet tillar instituti	66	66	**132**
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	64	64	**128**
Jizzax davlat pedagogika universiteti	63	63	**126**
Namangan davlat chet tillar instituti	62	62	**124**
Guliston davlat universiteti	59	59	**118**
Jami	**314**	**314**	**628**

ISPM modelini amalga oshirishning shakllantiruvchi bosqichi 15 haftaga mo‘ljallangan bo‘lib, mashg‘ulotlar haftasiga ikki marta 80 daqiqadan o‘tkazildi. O‘quv jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga olgan modulli bloklarga ajratildi:

1. Leksik-semantik blok – “muvaffaqiyat/success” konseptini aks ettiruvchi lug‘at birliklariga urg‘u berish, konsept-kartalar (tushunchalar xaritasi) yaratish, mavzuviy tanlanmalar, sinonim va antonimlar bilan ishlash.

2. Kommunikativ mashqlar – “muvaffaqiyat/success” konseptining tayanch leksikasini qo‘llagan holda o‘tkaziladigan munozaralar, debat va rolli o‘yinlar.

3. Loyiha topshiriqlari – muvaffaqiyatli ta’limiy, kasbiy va ijtimoiy tajribalarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan mini-loyihalar, taqdimotlar va keyslar.

4. Refleksiv mashqlar – muvaffaqiyat kundaliklari, *self-assessment* (o‘z-o‘zini baholash), progressni va qiyinchiliklarni yengib o‘tish strategiyalarini qayd etuvchi anketalar.

Tajriba-sinov bosqichlari:

Tashxis bosqichi (1–2-haftalar) – bilim va motivatsiyaning boshlang‘ich darajasini aniqlash, majmuaviy test sinovlari.

Asosiy bosqich (3–13-haftalar) – TGda ISPM modelini tatbiq etish, NGda an’anaviy o‘qitish, progressni muntazam ravishda qayd etib borish.

Yakuniy bosqich (14–15-haftalar) – yakuniy test sinovlari, loyihalar va kundaliklar tahlili, statistik ishlov berish.

Tadqiqot metodlari quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

test sinovlari (ko‘p variantli testlar, esse, konsept-kartalar);

anketalashtirish va so‘rovnomalar (Laykert shkalasi, ochiq savollar);

kuzatish (munozara, rolli o‘yin va loyihalardagi faollik);

loyihalar va taqdimotlar tahlili;

refleksiv jurnallarni yuritish.

ISPM samaradorligining mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlandi (6-jadvalga qarang):

6-jadval.

Samaradorlik mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Ko‘rsatkichlar	Vositalar	Darajalar (ball / %)
Kognitiv (Cognitive)	Leksika va grammatikani bilish, konseptni tushunish chuqurligi	Testlar, esse, konsept-kartalar	Past: <60% O‘rta: 60–89% Yuqori: 90–100%
Motivatsion (Motivational)	Tilga bo‘lgan qiziqish, muvaffaqiyatga erishishning ichki motivatsiyasi	Anketalashtirish, Laykert shkalasi	Past: 1.0–2.4 O‘rta: 2.5–3.7 Yuqori: 3.8–5.0
Xulq-atvor (Behavioral)	Loyihalardagi tashabbuskorlik, kommunikativ faollik	Kuzatish, baholash varoqlari	Past: 0–4 O‘rta: 5–7 Yuqori: 8–10
Refleksiv (Reflective)	O‘z-o‘zini tahlil qilish, muvaffaqiyat kundaligini yuritish, metabilish	Refleksiv jurnallar, *self-assessment*	Past: 0–4 O‘rta: 5–7 Yuqori: 8–10


Samaradorlikning integrativ ko‘rsatkichi (IE) quyidagi formula bo‘yicha hisoblandi:

$$IE = (K_{cog} \cdot 0{,}3) + (K_{mot} \cdot 0{,}25) + (K_{beh} \cdot 0{,}25) + (K_{ref} \cdot 0{,}2)$$

Ushbu qismda tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatuvchi statistik hisob-kitoblar va yakuniy o‘sish ko‘rsatkichlari keltirilgan. OAK talablariga muvofiq, bunday ma’lumotlar ilmiy tilda va aniq raqamlar bilan taqdim etilishi lozim.

Beshta oliy ta’lim muassasasi kesimida olingan natijalarning qiyosiy tahlili tajriba guruhlarida ko‘rsatkichlarning o‘zaro yaqin ijobiy dinamikasini aniqlash


imkonini berdi. Alohida ta’lim maydonlarida mualliflik qiyosiy IE indikatori qiymatlarining nisbatan tor diapazonda bo‘lishi ISPM modeli natijalarining tadqiq etilgan institutsional sharoitlarda barqarorligini ko‘rsatdi. 628 nafar respondent bo‘yicha ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni aniqladi ($p < 0,001$), bu esa tadqiqotning ishchi gipotezasini tadqiq etilgan tanlanma va tajriba sharoitlari doirasida tasdiqlash imkonini berdi. Beshta oliy ta’lim muassasasidagi samaradorlikning integral ko‘rsatkichi bo‘yicha qiyosiy ma’lumotlarning vizuallashuvi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Beshta ta’lim maydoni kesimida nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari o‘sishi hamda IE qiymatlarining qiyosiy tahlili

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, beshta ta’lim maydonining barchasida tajriba guruhlaridagi ko‘rsatkichlar o‘sishi nazorat guruhlaridagi tegishli o‘sishdan yuqori bo‘lgan. Tajriba guruhlarida o‘rtacha o‘sish 22,0% ni, nazorat guruhlarida esa 6,0% ni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari o‘sishi o‘rtasidagi farqni aks ettiruvchi mualliflik qiyosiy IE indikatori o‘rtacha 16,0% ni tashkil etib, alohida ta’lim maydonlari kesimida 15,3% dan 16,3% gacha bo‘lgan diapazonda kuzatildi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatliligi Styudent t-mezoni natijalari bilan tasdiqlandi ($p < 0,001$). Olingan ma’lumotlar ISPM modeli natijalarining tadqiq etilgan institutsional sharoitlarda o‘zaro yaqin ijobiy dinamikasini ko‘rsatadi.

Shakllantiruvchi bosqich natijalarining dinamikasini batafsil tahlil qilish maqsadida tajriba guruhlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha oraliq va yakuniy qiyoslash amalga oshirildi. Monitoring 1-, 8- va 15-haftalarda o‘tkazilib, muvaffaqiyat markerlaridan ongli foydalanish, muvaffaqiyat vaziyatini loyihalash qobiliyati, madaniyatlararo sezgirlik va refleksivlik darajasini qamrab oldi. Olingan ma’lumotlar shakllantiruvchi bosqich davomida har bir ko‘rsatkich bo‘yicha o‘zgarishlar dinamikasini kuzatish imkonini berdi. Mazkur ko‘rsatkichlarning dinamikasi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Shakllantiruvchi bosqich davomida tajriba guruhi talabalarining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

3-rasmda keltirilgan ma’lumotlar tajriba guruhlarida shakllantiruvchi bosqich davomida barcha asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha izchil ijobiy dinamika kuzatilganini ko‘rsatadi. Muvaffaqiyat markerlaridan ongli foydalanish ko‘rsatkichi 31% dan 74% gacha oshib, umumiy o‘sish 43 foiz punktini tashkil etdi. Muvaffaqiyat vaziyatini loyihalash qobiliyati 18% dan 69% gacha (+51 foiz punkti), madaniyatlararo sezgirlik 35% dan 76% gacha (+41 foiz punkti), refleksivlik darajasi esa 22% dan 78% gacha (+56 foiz punkti) oshdi. Ayniqsa, refleksivlik darajasi va muvaffaqiyat vaziyatini loyihalash qobiliyatidagi o‘sish ISPM modeli doirasida qo‘llanilgan Success Diary, refleksiv topshiriqlar, loyiha faoliyati va pedagogik scaffolding vositalarining amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Olingan natijalar shakllantiruvchi bosqichda talabalar faoliyatining kognitiv, amaliy va refleksiv jihatlarini kompleks rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi. Mazkur dinamika ISPM modelining tadqiq etilgan sharoitlarda pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va natijador ekanligini tasdiqlovchi qo‘shimcha empirik dalil sifatida qaraladi.

XULOSA

1. Zamonaviy lingvodidaktikada “muvaffaqiyat / success” konsepti ko‘p o‘lchovli pedagogik hodisa bo‘lib, kognitiv, aksiologik, xulq-atvoriy va refleksiv komponentlarning yaxlitligida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ingliz tilini o‘qitish metodikasida mazkur konsept motivatsion-rag‘batlantiruvchi, ma’no hosil qiluvchi, regulyativ hamda refleksiv-baholash funksiyalarini bajaradi. Chet til ta’limini tashkil etishda konseptning lingvomadaniy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslandi.

2. Mualliflik Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) modeli ilmiy jihatdan asoslandi va ishlab chiqildi. Model o‘zaro bog‘liq to‘rtta funksional

blok — maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik va baholash-natijaviy bloklardan iborat bo‘lib, yakuniy natija modelning tugallovchi elementi sifatida belgilandi. Modelni amalga oshirish analitik, diskursiv va refleksiv darajalardan iborat uch bosqichli mualliflik mashqlari tizimi orqali ta’minlanadi.

3.ISPM modeli O‘zbekiston Respublikasining ta’lim kontekstiga moslashtirildi. Bunda milliy-madaniy qadriyatlar, akademik muhitning o‘ziga xos xususiyatlari hamda talabalarning chet til tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar hisobga olindi. Kross-madaniy topshiriqlar, refleksiv amaliyotlar, *Success Diary* tizimi va *Peer-scaffolding* mexanizmlarining kiritilishi modelning ta’lim oluvchilarning individual va madaniy xususiyatlariga moslashuvchanligini kuchaytirish hamda uni turli turdagi oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash imkoniyatini ta’minladi.

4. Tadqiqotning nazariy va metodik qoidalari mualliflik o‘quv materiallari tizimida amaliy ifodasini topdi, jumladan, *Cognitive Linguistics*, *Lesson Planning: Selecting and Creating Educational Materials I* darsliklari hamda *Developing Intercultural Communication* o‘quv qo‘llanmasiga tatbiq etildi. Ulardan foydalanish ISPM modeli elementlarini filologiya yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligiga oid tayanch fanlar mazmuniga integratsiya qilish imkonini berdi.

5. ISPM modelining tajriba-sinov tekshiruvi O‘zbekiston Respublikasidagi beshta oliy ta’lim muassasasining filologiya yo‘nalishlari 3-kursida tahsil olayotgan 628 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi — SamDChTI, O‘zDJTU, Jizzax DPU, NamDChTI va GulDU. Tajribaning turli profildagi beshta ta’lim maydonida o‘tkazilishi ISPM modeli natijalarining tadqiq etilgan institutsional sharoitlarda takrorlanishini baholash hamda tadqiqotning empirik bazasini kengaytirish imkonini berdi.

6. “Matnning pragmatik tahlili” fani doirasida ISPM modelining qo‘llanilishi talabalarda “muvaffaqiyat / success” konseptini turli lingvomadaniy kontekstlarda talqin qilish, muvaffaqiyatning konseptual metaforalarini aniqlash hamda madaniyatlararo diskursda kommunikativ strategiyalardan ongli ravishda foydalanish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.

7. “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalar” fanini o‘rganish jarayonida bo‘lajak pedagoglar Success-oriented Scaffolding texnologiyasini egalladilar. Tajriba ta’limi yakunlariga ko‘ra, tajriba guruhi respondentlarining 81 foizi pedagogik qo‘llab-quvvatlash elementlarini muvaffaqiyatli qo‘llagan, 76 foizi esa dars rejalariga refleksiv komponentni muntazam ravishda kiritgan. Bu talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatida “muvaffaqiyat vaziyatlari”ni loyihalash ko‘nikmalari rivojlanganligini ko‘rsatdi.

8. Matematik-statistik tahlil tajriba ta’limi natijalarida ijobiy dinamikani tasdiqladi. Nazorat guruhlarida ko‘rsatkichlar o‘sishi 6,0 foizni, tajriba guruhlarida esa 22,0 foizni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari o‘sishi o‘rtasidagi farqni aks ettiruvchi mualliflik qiyosiy IE indikatori 16,0 foizni tashkil etdi. Beshta ta’lim maydonida Styudent t-mezoni qiymatlari 5,42 dan 5,91 gacha bo‘lib, $p < 0,001$ darajasida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi aniqlangan farqlarning statistik ahamiyatliligini tasdiqladi.

9. Olingan nazariy va eksperimental ma’lumotlar majmui “muvaffaqiyat / success” konseptini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tizimli integratsiya qilishning pedagogik maqsadga muvofiqligi haqidagi tadqiqotning ishchi gipotezasini tasdiqladi. ISPM modelining tajriba-sinov natijalari o‘rganilgan kompetensiyalar bo‘yicha ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalar o‘sishi o‘rtasidagi farqni aks ettiruvchi mualliflik qiyosiy IE indikatori 16,0 foizni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich bitiruvchilarning raqobatbardoshligi bevosita 16,0 foizga oshganligi sifatida talqin etilmaydi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

1. “Muvaffaqiyat / success” konseptini filologiya yo‘nalishlari ta’lim dasturlari mazmuniga talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi, o‘quv motivatsiyasi va refleksiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik-metodik hamda qadriyatli-mazmuniy komponent sifatida integratsiya qilish tavsiya etiladi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini o‘qitish amaliyotiga maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik va baholash-natijaviy bloklarning o‘zaro bog‘liqligini hamda yakuniy natijaga erishishni bosqichma-bosqich amalga oshirish algoritmi orqali ta’minlovchi Integrated Success-oriented Pedagogical Model (ISPM) texnologik modelini joriy etish tavsiya etiladi.

3. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashda konseptual, protsessual, metakognitiv va refleksiv bosqichlarda muammoli vaziyatlar, loyihaviy topshiriqlar hamda kasbiy-kommunikativ ssenariylardan foydalanishni nazarda tutuvchi analitik, diskursiv va refleksiv darajalardagi konseptga yo‘naltirilgan mashqlar majmuasini qo‘llash maqsadga muvofiq.

4. Talabalarning o‘quv motivatsiyasi, mustaqilligi va refleksiv tafakkurini rivojlantirish maqsadida Success Diary, o‘quv portfoliosi va Peer-scaffolding kabi refleksiv qo‘llab-quvvatlash texnologiyalaridan tizimli foydalanish, ular orqali o‘z-o‘zini baholash, maqsad qo‘yish va individual ta’lim yutuqlarini ongli tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

5. Ta’lim natijalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish maqsadida talabalarning o‘quv yutuqlari dinamikasini baholashga xizmat qiluvchi kognitiv, motivatsion, faoliyatli va refleksiv mezonlar, tegishli ko‘rsatkichlar hamda diagnostik vositalarni o‘z ichiga olgan mezoniy-diagnostik instrumentariydan foydalanish tavsiya etiladi.

6. Chet tillari kafedralari, pedagog kadrlar malakasini oshirish markazlari va o‘quv-metodik adabiyotlar mualliflariga tadqiqot natijalaridan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda ingliz tilini o‘qitishda konseptga yo‘naltirilgan texnologiyalarni joriy etish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

7. ISPM texnologik modelini amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida uni boshqa kurslar va ta’lim yo‘nalishlarida tajriba-sinovdan o‘tkazishni davom ettirish, aralash va masofaviy ta’lim sharoitlariga

moslashtirish imkoniyatlarini o‘rganish hamda ta’lim natijalarining uzoq muddatli barqarorligini tadqiq etish tavsiya etiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

АБДУЛЛАЕВА ЛОЛА ТОХИРОВНА

ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРАЦИИ КОНЦЕПТА «УСПЕХ / SUCCESS» В МЕТОДИКУ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора педагогических наук зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии Наук Республики Узбекистан за номером B2026.1.DSc/Ped1396.

Данная диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www. ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Тухтасинов Илхомжон Мадаминович** доктор педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Хошимова Дилдорхон Уринбоевна** доктор педагогических наук, профессор
	Максудова Хилола Фердинантовна доктор педагогических наук, доцент
	Холмуродова Дилноза Холмуродовна доктор педагогических наук, доцент
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Узбекском государственном университете мировых языков (зарегистрирована за номером ____). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____2026 года.
(Реестр протокола рассылки №_____от «_____» _____2026 года)

Д.У. Джураев
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ф.Г. Закирова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

А.Б. Рахмонов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации и стремительного развития международных коммуникаций особое значение приобретает качественное обучение иностранным языкам, прежде всего английскому языку как универсальному средству академического, профессионального и межкультурного взаимодействия. Современный этап развития высшего образования характеризуется переходом от познавательной парадигмы к компетентностной, личностно-ориентированной и результативной моделям обучения, в которых ключевым показателем выступает не только уровень сформированности языковых навыков, но и способность обучающихся к самореализации, устойчивой учебной мотивации, рефлексии и достижению образовательного успеха.

В мировой педагогической практике усиливается интерес к концептно-ориентированным моделям обучения, направленным на интеграцию ценностных, когнитивных и метакогнитивных компонентов в процесс преподавания иностранных языков. Особую актуальность приобретают исследования, ориентированные на внедрение инновационных педагогических технологий, обеспечивающих целостное развитие личности обучающегося, формирование его внутренней мотивации, стратегического мышления и способности к осознанному управлению собственной учебной деятельностью. В этом контексте концепт «успех/success» рассматривается как междисциплинарная педагогическая категория, отражающая совокупность когнитивных достижений, личностного роста, ценностных установок и коммуникативной эффективности обучающихся.

Актуальность исследования обусловлена модернизацией системы высшего образования в Узбекистане, направленной на подготовку конкурентоспособных педагогических кадров, владеющих иностранными языками и современными образовательными технологиями. В государственных стратегических и программных документах подчёркивается необходимость развития иноязычного образования, совершенствования методик обучения и воспитания, а также формирования выпускников нового типа, обладающих высокой коммуникативной компетентностью, критическим мышлением, устойчивой учебной мотивацией и способностью к социальной адаптации. В этих условиях особую значимость приобретает научно-педагогическое переосмысление содержания, форм и методов образовательного процесса, ориентированного на повышение качества подготовки будущих специалистов и создание условий для их профессиональной и социальной самореализации. «...мы поставили перед собой цель войти в ряд развитых государств и сможем достичь её, только проводя ускоренные реформы, опираясь на науку, просвещение и инновации. Для этого нам, прежде всего, необходимо воспитать кадры новой формации, выступающие инициаторами реформ, обладающие стратегическим видением,

глубокими знаниями и высокой квалификацией. Именно поэтому мы начали реформирование всех звеньев образования — от дошкольного до высшего»[1].

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, предусмотренных нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан, в частности Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указом Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению реформ и их выводу на новый этап в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года», Указом Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2026 года № УП-58 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций», Указом Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2026 года № УП-98 «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения», а также Постановлением Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в реализации широкомасштабных реформ, осуществляемых в стране», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 27 февраля 2020 года № ПП-4623 «О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» и Постановлением Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2022 года № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений, осуществляющих подготовку педагогических кадров». Указанные нормативно-правовые акты определяют приоритетные направления дальнейшего развития системы высшего образования, совершенствования методики преподавания иностранных языков, внедрения современных образовательных и цифровых технологий, а также повышения качества подготовки педагогических и научных кадров, что непосредственно соотносится с целями и задачами настоящего исследования.

[1] Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису. 24.01.2020. - https://president.uz/ru/lists/view/3324

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением науки и технологий республики I. «Развитие информационного общества и демократического государства в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском аспектах, развитие системы инновационных идей и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации[2]. В мировой педагогической и лингводидактической науке значительное внимание уделяется проблемам повышения качества обучения иностранным языкам, внедрения компетентностно-ориентированных и личностно-развивающих моделей образования, а также проектирования инновационных педагогических технологий, направленных на формирование академической успешности, учебной мотивации и метакогнитивной самостоятельности студентов. Исследования в данной области проводятся в ведущих научных центрах и университетах мира, в том числе в Университете Торонто (Канада), Университете иностранных языков Хангук, Сеульском национальном университете, Сеульском университете иностранных языков (Республика Корея), Колледже иностранных языков (КНР), Московском государственном университете, Московском государственном лингвистическом университете, Санкт-Петербургском государственном университете (Россия), Университете Галлодета, Кентском государственном университете, Монтерейском институте международных исследований, Техасском университете, Международном университете Флориды, Гарвардском, Йельском, Стэнфордском, Ратгерском и Чикагском университетах (США), Вестминстерском университете, Кембриджском университете, Оксфордском университете, Эдинбургском университете, Лондонском столичном университете (Великобритания), Школе иностранных языков Болонского университета (Италия), Университете Нового Южного Уэльса, Университете Канберры (Австралия), Инсбрукском университете (Австрия), Университете Едитепе, Университете Алтынбаш (Турция), а также в Узбекском государственном университете мировых языков и Самаркандском государственном институте иностранных языков.

В зарубежных исследованиях в области концептуального и компетентностно-ориентированного обучения иностранным языкам получены значимые научные результаты, в частности: обоснована роль ценностно-смысловых и мотивационных факторов в иноязычном образовании; раскрыты механизмы формирования учебной успешности и

[2] QS World University Rankings by Subject 2024: Linguistics [Electronic resource]. – URL: https://www.topuniversities.com/university-rankings/university-subject-rankings/2024/linguistics (date of access: 20.05.2024). QS World University Rankings by Subject 2024: Modern Languages [Electronic resource]. – URL: https://www.topuniversities.com/university-rankings/university-subject-rankings/2024/modern-languages (date of access: 20.05.2024). The Routledge Handbook of English Language Teaching / ed. by G. Hall. – London : Routledge, 2016. – 560 p. – (Routledge Handbooks in Applied Linguistics). Times Higher Education World University Rankings 2024: Arts and Humanities [Electronic resource]. – URL: https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2024/subject-ranking/arts-and-humanities (date of access: 20.05.2024).

академической самоэффективности (self-efficacy) студентов; разработаны модели интеграции метакогнитивных стратегий, рефлексивных практик и личностно-ориентированных технологий в процесс обучения иностранному языку; доказана эффективность концептуально-ориентированного проектирования учебных заданий, направленных на развитие осознанности обучения и автономии студентов.

